

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki(markaziy apparat, hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufdagi korxonalar)da 2025-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida

UMUMIY HISOBOT

I. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid chora-tadbirlar dasturlari ijrosi to'g'risida umumiy ma'lumot.

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-son "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Markaziy bank boshqaruvining 2025-yil 15-maydagi 11/3-sonli qaroriga asosan Markaziy bank markaziy apparatida alohida Komplayens-nazorat xizmati hamda Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufdagi korxonalari shtat birliklaridan kelib chiqib qarorda belgilangan minimal mezonlar asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat bo'linmalari tashkil etildi.

Shuningdek, Markaziy bank boshqaruvining 2025-yil 15-maydagi 11/3-sonli qarori bilan "Komplayens-nazorat xizmati to'g'risida"gi Nizomi tasdiqlanib unda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari o'z faoliyatida bevosita Markaziy bank raisiga bo'ysunishi belgilab qo'yildi.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2025-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-71-sonli Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yilning 5-iyun sanasida

32-03/822-sonli xat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilgan.

Shuningdek, 2025-yilning 26-sentyabr sanasida 32-09/1378-sonli xat bilan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga takliflar loyihasi yuborilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tashabbusi oila.kredit.uz platformasida imtiyozli kredit uchun berilgan ariza holatini tekshirish, natijasi to'g'risida xabarnoma olish imkoniyatlari yaratilib, platforma orqali yuborilgan arizalar nafaqat hokim yordamchisi balki, bank xodimi tomonidan monitoring qilinib, platformamaga ma'lumot kiritilganidan so'ng kredit mablag'lari ajratilishi joriy qilindi.

Shu kabi, taijorat banklarinig bugungi kundagi kreditlari va boshqa bank xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yagona bank.kredit.uz platformasi orqali olish va tanishish imkoniyatlari yaratildi.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tomonidan o'tkazilgan yig'ilishlarda Markaziy bankka

berilgan topshiriqlar hududiy boshqarmalar kesimida nazoratga olinib, markaziy apparati, hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufdagi korxonalar tomonidan **71 ta** vazifalar bajarilishi ta'minlangan (*Batafsil ma'lumotlar 11A-ildovada*).

1.4. Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining sayyor majlislarida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, Bank tizimida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish maqsadida Markaziy bank va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasida "Davlat ulushi mavjud tijorat banklarida korrupsiyani oldini olish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish"ga qaratilgan Qo'shma qaror (*2025-yil 6-avgust 1/11-sonli*) va tijorat banklarida korrupsiyani oldini olish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan "Yo'l-xaritasi" tasdiqlangan. Mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalar natijasida davlat ulushi mavjud tijorat banklari bilan birgalikda bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-aprelda PQ-147-son qarori talablarini bajarish maqsadida Xalqbank, O'zsanoatqurilishbank, Mikrocreditbanklarda alohida ichki nazorat tuzilmalari tashkil etildi hamda ularni to'g'ridan-to'g'ri Bank kuzatuv kengashiga bo'ysunuvi va hisobdorligi belgilandi;

- banklarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan (KPI) oylik ish haqlarini to'lash va rag'batlantirish tizimi joriy qilindi;

- xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ISO 37001:2016 talablariga ichki nazorat tizimlari muvofiqlashtirildi;

- korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan jarayonlar, xizmatlar, lavozimlar va filiallar kesimida ma'lumotlarni umumlashtirish hamda tahlil o'tkazish tizimi joriy qilindi;

- barcha yangi joriy etiladigan bank xizmatlari, mahsulotlari va texnologiyalarining har biri yuzasidan avvaldan xavf-xatar tahlilini amalga oshirish va tegishli xulosa tayyorlash tizimini yo'lga qo'yildi;

- korrupsiya haqida xabar bergan xodimlar uchun maxsus rag'batlantirish tizimini joriy qilish, ularni ta'qibdan himoya qilish va maxfiylik kafolatlarini belgilash bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

Shuningdek, Markaziy bank tomonidan Qo'shma qarorda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarmagan va mas'uliyatsizlik bilan yondashayotgan bank mutasaddilarga nisbatan tegishli choralar ko'rish yuzasidan bank Kuzatuv kengashlari va Boshqaruviga tegishli ko'rsatmalar berilgan (*ilova qilinadi*).

II. Siyosat va tartib-taomillar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tavsiyalariga asosan hamda **ISO 37001:2016** korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standarti talablaridan kelib chiqib, Markaziy bankda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlarni tartibga soluvchi **13 ta** ichki normativ-huquqiy hujjatlar tasdiqlangan.

Markaziy bank boshqaruvining tegishli qarorlari bilan:

- *Markaziy bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati;*

- Markaziy bank tizimida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va boshqarish to'g'risidagi Nizom;
- Markaziy bankda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish to'g'risidagi Nizom;
- Markaziy bank tizimida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni o'rganish to'g'risidagi Yo'riqnoma;
- Markaziy bank tizimida xodimlarni etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil etish to'g'risidagi Yo'riqnoma;
- Markaziy bank tizimida kontragentlarni o'rganishga oid Yo'riqnoma;
- Markaziy bank tizimida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar hamda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti;
- Markaziy bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti;
- Markaziy bank tizimida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti;
- Markaziy bank xodimlari Odob-ahloqining qoidalari hamda Odob-ahloq komissiyasi to'g'risidagi Nizom;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tizimida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamenti;
- Markaziy bank tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish hamda ularning taqib qilinmasligi kafolatlari to'g'risidagi Tartib;
- Markaziy bank tizimida xodimlar tomonidan mehnat faoliyati bilan bog'liq sovg'a va mehmondo'stlik belgilarini qabul qilish, sovg'a qiymati va uni tasarruf etish tartibi to'g'risida Nizom tasdiqlandi.

Shuningdek, Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan tekshirish va o'rganishlar jarayonlarini yanada tartibga solish maqsadida, Boshqaruvning 2025-yil 18-noyabrdagi 31/8-sonli qarori bilan **“O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'tkaziladigan tekshirish va o'rganishlarda xodimlarning majburiy xizmat qoidalari”** tasdiqlanib, amaliyotga joriy qilingan. Mazkur hujjat orqali tekshirish va o'rganishga jalb etilgan xodimlarga **manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, sovg'a va mexmondo'stlik belgilarini** qabul qilmaslik yuzasidan majburiyatlar yuklatilgan. Bunda har bir tekshirish va o'rganish jarayoniga jalb etilgan xodimlar ushbu **Qoidalarda** belgilangan majburiyatlar bilan tanishgan holda jalb qilinishi ta'minlangan. Shu bilan birga, tekshirish va o'rganish tashabbuskori bo'lgan tarkibiy tuzilmalar tomonidan manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida, ichki hujjatlarni kelishish tartibi joriy qilingan.

III. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi **PQ-240-sonli** qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Markaziy bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyotiga muvofiq Markaziy bankka yuklangan barcha **52 ta funksiyalar bo'yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlar** baholandi.

Baholash natijalariga ko'ra Markaziy bankka qonunchilik hujjatlari bilan yuklatilgan vazifalar va faoliyatni amalga oshirishga doir qo'shimcha funksiyalardan (*xaridlarni amalga oshirish, ishga qabul qilish, nazoratga doir funksiyalari*) **16 tasi** bo'yicha xavf-xatar darajasi **“o'rta”** darajada va qolgan funksiyalari bo'yicha **“past”** darajada baholangan. Xususan **“o'rta”** darajada baholangan funksiyalar bo'yicha xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan tegishli choralar belgilangan.

Bunda, Markaziy bank faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni umuman olganda “past” darajada baholanishi Markaziy bank tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlariga bevosita bank-moliya xizmatlari ko'rsatilmasligi hamda xaridlarni amalga oshirish, ishga qabul qilish va Markaziy bankning nazoratga doir funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha qarorlarning kollegial tartibda qabul qilinishi, faoliyatning to'liq normativ-huquqiy xujjatlar bilan tartibga solinganligi va ish jarayonlarini avtomatlashtirish choralari ko'rilganligi bilan izohlanadi.

Baholash natijalari asosida shakllantirilgan Markaziy bankning Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda xavf-xatarlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi va tegishli ma'lumotlar **“E-antisor.uz”** elektron platformasiga joylashtirilgan.

Mazkur yo'nalishda Markaziy bankning markaziy apparati, hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufdagi korxonalari bir qator ishlar amalga oshirilishi ta'minlangan. Jumladan:

- korrupsiyaviy xavf-xatari “o'rta” baholangan barcha funksiyalarda faoliyat yurituvchi barcha xodimlar O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasining “Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish” bo'yicha maxsus kurslarida o'qitildi;

- tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslar uchun amalga oshirilgan valyuta oldi-sotdi operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar hisobini yuritishga mo'ljallangan “Valyuta operatsiyalari hisobini yuritish” (*FERUZ*) axborot tizimi;

- tijorat banklari bo'linmalari o'rtasida naqd pullar va vakillik hisobvarag'ining almashinuvini tezlashtirish, shaffof elektron bozori tizimini yaratish, banklarning teng huquqlar va shartlar asosida ishtirokini ta'minlash imkoniyatini beruvchi “Naqd pullarning elektron maydoni” axborot tizimi;

- Litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish to'g'risidagi arizalarni, faoliyatni boshlaganlik va tugatganlik haqidagi xabarnomalarni qabul qilish hamda ularni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha tegishli hujjatlarni berish jarayonlari bo'yicha raqamlashtirilgan maxsus elektron platforma;

- tadbirkorlik subyektlariga faktoring xizmatlaridan foydalanish uchun pul talabnomalari to'g'risidagi ma'lumot va hujjatlarni mustaqil ravishda onlayn rejimda kuzatib turish hamda avtomatik tekshirish bo'yicha “Faktoring” elektron platformasi kabi raqamlashtirilgan modullar orqali ushbu funksiyalarda inson omili ishtiroki kamaytirilmoqda.

Shu bilan birga, Jahon banki ekspertlari bilan birgalikda Markaziy bankda bank nazorati jarayonlarini to'liq raqamlashtirish yuzasidan SupTech tizimini joriy qilish bo'yicha loyiha amalga oshirilmoqda.

IV. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshiriladigan tartib-taomillar.

4.1. *Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish.*

Markaziy bank tizimida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va boshqarish to'g'risida Nizom talablariga asosan Markaziy bankning markaziy apparati, hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufidagi korxonalarda mehnat qilayotgan barcha xodimlarning **2025-yil uchun** manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha **yillik deklaratsiyalari taqdim qilingan.**

Markaziy bank tizimi bo'yicha umumlashtirilgan **“Manfaatlar to'qnashuvi reestri”** shakllantirildi hamda tegishli ma'lumotlar **“Ye-anticor.uz”** elektron platformasiga joylashtirildi.

Markaziy bankning 2024-yil 11-iyundagi 10-sonli buyrug'i bilan “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ–210-son “O'zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijrosini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi hamda ijrosi ta'minlangan. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlar har chorak yakuni bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim etilgan.

Shuningdek, Markaziy bank tizimida bo'sh ish o'rinlarga nomzodlarni lavozimga tayinlash hamda lavozimini o'zgartirish (rotatsiya) jarayonida nomzodlarning manfaatlar to'qnashuvi mavjud/mavjud emasligi to'g'risidagi deklaratsiyalari tahlil qilinib, **tegishli xulosalar berilgan.**

Manfaatlar to'qnashuvini oldini va ularni boshqarish borasida Markaziy bank tizimida faoliyat yuritayotgan **2 152 nafar** boshqaruv xodimlaridan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha yillik deklaratsiyalar olinib, **2 ta** “mavjud” manfaatlar to'qnashuvi holati bartaraf etilgan va **303 ta** “ehtimoliy” manfaatlar to'qnashuvini boshqarish choralari belgilangan.

4.2. *Korrupsiyaga qarshi qoidalarini tashkilot shartnomalariga kiritish.*

Markaziy bank tizimida xaridlarni amalga oshirishda tuziladigan xo'jalik shartnomalariga O'zbekiston Respublikasining **“Davlat xaridlari to'g'risida”gi** Qonunining **46-moddasiga** asosan xaridlarni amalga oshirishda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik prinsiplaridan kelib chiqib, korrupsiyaga va qonunchilikning boshqacha tarzda buzilishlariga yo'l qo'ymaslik hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha shartlar kiritilgan.

Markaziy bank tizimiga ishga qabul qilinadigan xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalarida lavozim majburiyatlarini suiste'mol qilmaslik, Markaziy bankning ichki me'yoriy hujjatlari, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalariga rioya qilish hamda biror bir shaxslar yoki xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lgan holatlari haqida o'z

rahbarini va Markaziy bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmasini zudlik bilan xabardor qilishga oid majburiyatlar belgilangan.

4.3. Kontragentlarni tekshirish.

Markaziy bank tizimida kontragentlarni o'rganishga oid Yo'riqnoma talablari asosida xaridlarni tender, tanlov va to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirishda **ishtirokchilarda affillanganlik, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa korrupsiyaviy xatarlarini oldini olishga** qaratilgan **1 408 ta** (*markaziy apparat – 312 ta, hududiy bosh boshqarmalar – 189 ta, tasarrufdagi korxonlarda – 907 ta*) kontragentlar bo'yicha o'rganishlar o'tkazilib tegishli xulosalar berildi.

O'rganishlar davomida, **3 ta** kontragentlarda o'zaro affillanganlik holatlari aniqlanib salbiy xulosalar taqdim qilingan va xarid jarayonlari bekor qilingan.

O'rganish natijalari bo'yicha shakllantirilgan kontragentlarni o'rganish reestri **“E-antisor.uz”** elektron platformasiga joylashtirilgan.

4.4. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni o'rganish.

Markaziy bankka ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni o'rganish to'g'risida Yo'riqnoma talablariga asosan **589 nafar** (*markaziy apparat – 170 nafar, hududiy bosh boshqarmalar – 57 nafar, tasarrufdagi korxonlarda – 362 nafar*) nomzodlar o'rganilgan. Mazkur o'rganishlar jarayonida nomzodlar hamda yuqori lavozimga tayinlanayotgan xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi holatlari, avvalgi ish joyidagi xulq-atvori hamda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish bilan bog'liq ma'lumotlarga e'tibor qaratilgan.

O'rganish natijalari bo'yicha shakllantirilgan nomzodlarni o'rganish reestri **“E-antisor.uz”** elektron platformasiga joylashtirildi.

V. Xodimlarni o'qitish va kommunikatsiya tadbirlari.

5.1. Xodimlarning xuquqiy ongini oshirish yuzasidan o'qitish tadbirlari.

Markaziy bank tizimi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil etish bo'yicha **2025-yilga mo'ljallangan o'quv-seminar dasturi tasdiqlangan.**

Mazkur dastur doirasida Markaziy bank tizimi barcha xodimlari uchun jami **206 marotaba** (*Markaziy apparatda - 31 ta, hududiy bosh boshqarmalarda – 119 ta, tasarrufdagi korxonalarda - 56 ta*) davra suhbatlari, ma'ruza va seminarlar tashkil etilgan.

Markaziy bank tizimida jami **589 nafar** (*markaziy apparatda 170 nafar, hududiy boshqarmalarda 57 nafar, tasarrufdagi korxonalarda 362 nafar*) xodimlar yangi ishga qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 21.06.2024-yildagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi

PQ-228-sonli qarori asosida Markaziy bank tizimida yangi ishga qabul qilingan

xodimlarni Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasining bazaviy va maxsus kurslarida o'qitish yo'lga qo'yilgan. Markaziy bank tizimida yangi ishga qabul qilingan xodimlar dastlab Virtual akademianing bazaviy o'quv kurslarida o'qitilgan bo'lib (*bazaviy kurslarda sertifikatlar berish amaliyoti mavjud emas*), keyinchalik Virtual akademianing maxsus kurslarining "Davlat xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashish" **mavzusida o'qitilgan va sertifikatlar olingan.**

Bundan tashqari, Markaziy bank tizimida **LMC maxsus onlayn o'quv platformasi** ishga tushirilgan bo'lib, har bir yangi ishga qabul qilingan xodimlar ushbu **platforma orqali ham o'qitilishi ta'minlangan** (*Platforma ishlash tartibi va kurslar bo'yicha ma'lumot ilova qilinadi*).

Shuningdek, yuqoridagi Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida bugungi kunda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi"da Markaziy bankning **2 125 nafar** xodimlari "**Davlat xizmatida halollikni ta'minlash**", "**Davlat xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashish**" va "**Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish**" bo'yicha **maxsus kurslarida o'qitildi.**

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi hamkorligida ishlab chiqilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini samarali ishlashini ta'minlash mavzusidagi **36 soatlik maxsus** chuqurlashtirilgan o'quv kursida Markaziy bank tizimining komplayens-nazorat xizmati xodimlari o'qitildi va tegishli sertifikatlar olindi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berish tizimi.

Markaziy bank boshqaruvining 2022-yil 24-sentyabrdagi 21/8-sonli qarori bilan "Markaziy bank tizimida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar hamda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti" tasdiqlangan.

Shuningdek, Markaziy bank tizimi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari haqida xabar berishga mo'ljallangan **4 ta aloqa kanallari** (*rasmiy veb-sayt, elektron pochta, telegramm bot, ishonch telefoni*) ishga tushirilgan.

Markaziy bank tizimi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari haqida kelib tushgan murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun hamda Markaziy bankning Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Shu bilan birga, Markaziy bank boshqaruvining 2023-yil 25-martdagi 8/13-sonli qarori bilan "**Markaziy bank tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish hamda ularning ta'qib qilinmasligi kafolatlari to'g'risida**"gi Tartib tasdiqlangan.

2025-yilda Markaziy bank tizimi xodimlarining korrupsiya bilan bog'liq xatti-harakatlari yuzasidan **murojaatlar kelib tushmagan.**

VII. Monitoring, nazorat va profilaktik tadbirlar.

Markaziy bank boshqaruvining 2023-yil 24-dekabrdagi qarori bilan tasdiqlangan “Markaziy bank tizimida o‘tkaziladigan ichki audit va komplayens-nazoratni tashkil etish rejasi”ga asosan Markaziy bankning tarkibiy bo‘linmalari, hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufdagi korxonalarda Markaziy bankning **korruptsiyaga qarshi kurashishga oid hujjatlarida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan o‘rganishlar o‘tkazilib kelinmoqda.**

Markaziy bank markaziy apparatining Moliyaviy monitoring, Valyutani tartibga solish va to‘lov balansi va Mikromoliya bozori ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish departamentlarida (3 ta) o‘rganishlar o‘tkazilgan.

Shuningdek, Markaziy bankning Qoraqolpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyat hududiy bosh boshqarmalari (14 ta) hamda tasarrufdagi korxonalarda (4 ta) **monitoring va nazorat tadbirlari amalga oshirilgan.**

O‘rganishlar davomida departamentlar, davlat unitar korxonalari hamda hududiy bosh boshqarmalar xodimlari tomonidan korruptsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilganligi yoki sodir etilgan korruptsiyaviy harakatlar yoki odob-ahloq qoidalariga rioya qilmaslik to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida ma‘lumotlar, shuningdek vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun‘iy to‘siqlarning mavjudligi hamda o‘z vaqtida qaror qabul qilmaslik yoki asossiz tezkor tartibda qaror qabul qilish holatlari kuzatilmagan.

Shuningdek, o‘rganishlar davomida xodimlar uchun korruptsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik hamda Markaziy bankning ichki normativ-huquqiy hujjatlari mazmun-mohiyati va talablari yuzasidan **o‘quv-seminarlar** tashkil etilib, xodimlar bilan **profilaktik suhbatlar, test sinovlar** hamda **anonim so‘rovlar** o‘tkazildi salbiy fikrlar kuzatilmagan.

Yuqoridagi o‘rganish natijalari bo‘yicha to‘plangan hujjatlar Markaziy bank rahbariyatiga kiritildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari.

2025-yilda o‘tkazilgan monitoring va nazorat tadbirlarida aniqlangan xodimlar faoliyatida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar yuzasidan **10 nafar** xodimlarga nisbatan intizomiy ta’sir choralari qo‘llanilgan.

IX. Xulosalar.

- Markaziy bankda Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining tavsiyalariga asosan hamda ISO 37001:2016 korruptsiyaga qarshi kurashish xalqaro standarti talablaridan kelib chiqib, Markaziy bankda korruptsiyaga qarshi kurashish sohasini tartibga soluvchi **13 ta** ichki normativ-xuquqiy hujjatlar tasdiqlangan.

*Shu bilan birga, Markaziy bank tizimida xodimlar tomonidan mehnat faoliyati bilan bog‘liq **sovg‘a va mehmondo‘stlik belgilarini qabul qilish, sovg‘a qiymati va uni tasarruf etish tartibi** to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan.*

*Markaziy bank tasarrufidagi barcha korxonalarda nomzodlarni ishga qabul qilish bo‘yicha tanlov jarayonlarini avtomatlashtirish orqali inson omili ishtirokini minimallashtirish maqsadida **nomzodlarni ishga qabul qilish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar** kiritilgan.*

*Markaziy bank Boshqaruvining 2025-yil 18-noyabrdagi 31/8-sonli qarori bilan **“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o‘tkaziladigan tekshirish va o‘rganishlarda xodimlarning majburiy xizmat qoidalari”** tasdiqlangan.*

- Markaziy bank boshqaruvining 1877-sonli farmoyishi bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini joriy qilish yuzasidan 2025-yilning dekabr oyi davomida, ichki audit tekshiruvlari o'tkazildi va uning natijalari rahbariyatga kiritildi.

- Markaziy bankka yuklangan barcha funksiyalar korrupsiyaviy xavf-xatarlari tahlil qilinib, korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi bo'yicha toifalarga ajratilgan. Baholash natijalari yuzasidan shakllantirilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda xavf xatarlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ijrosi ta'minlangan.

- "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan hamda ijrosi ta'minlangan.

- O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" Qonuni talablari asosida Markaziy bank bo'yicha umumlashgan Manfaatlar to'qnashuvi reestri shakllantirilgan hamda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha choralar belgilangan va nazoratga olingan.

- Xo'jalik shartnomalari hamda mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi shartnomalarda korrupsiyaga qarshi qoidalarni nazarda tutuvchi shartlar kiritilgan.

- Markaziy bank tizimida xaridlarni amalga oshirishda hamda tizimga ishga qabul qilinayotgan va yuqori lavozimga tayinlanayotgan nomzodlarni ichki normativ hujjatlarda belgilangan tartibda o'rganish ishlari amalga oshirilgan.

- Markaziy bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid bilim va ko'nikmalarini oshirish, korrupsiyaning mohiyati, sabablari, ijtimoiy jihatdan xavfli va zararli oqibatlari to'g'risida umumiy tasavvurni shakllantirish maqsadida muntazam ravishda o'quv seminarlari va profilaktik tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda.

X. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha 2026-yilda rejalashtirilgan chora-tadbirlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-270-sonli farmonida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash.

2. 2026-yilgi Komplayens-nazoratni tashkil etish rejasiga muvofiq Markaziy bankning markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va tasarrufdagi korxonalarda korrupsiyaga qarshi komplayens-nazorat masalalari yuzasidan monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish.

3. "2026-yilda Markaziy bank xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil etish dasturi"ga muvofiq tizim xodimlari uchun **korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik va ichki normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati va talablari yuzasidan o'quv-seminar va targ'ibot tadbirlarini o'tkazish.**

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash yo'nalishlari va indikator ko'rsatkichlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash choralari ko'rib, amalga oshirilgan ishlar borasidagi barcha zarur choraklik/yarim yillik ma'lumotlarning **"E-anticor.uz"** elektron platformasiga joylashtirilib borish.

5. Markaziy bank tizimida faoliyat yurituvchi xodimlarning tadbirkorlik subyektlaridagi ishtiroki, ularning sudlanganligi hamda boshqa nazorat funksiyalarini samarali va muntazam monitoring qilish maqsadida maxsus axborot portallari bilan integratsiyalashgan **Komplayens-nazorat elektron platformasini** joriy qilish.

6. Markaziy bankning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini **"ISO37001:2025 Korrupsiyaga qarshi menedjment tizimi"** xalqaro standart talablariga muvofiqligi yuzasidan **tashqi auditdan o'tkazish va sertifikatlash**.

7. **ISO 37002:2021 "Whistleblowing management systems"** ya'ni, korrupsiya haqida xabar berish tizimiga **xalqaro standartlarni tatbiq qilish**.

8. Komplayens-nazorat xizmati xodimlarini bosqichma-bosqich xalqaro tan olingan (ICA "Anti-Corruption Specialist Certificate", IACA "International anticorruption academy" va boshqa) tashkilotlarda **o'qitish va sertifikatlash rejalashtirilgan**.

**Komplayens-nazorat
xizmati boshlig'i**

V.Xamrakulov